



XORIJIY TILLARNI O'RGANISHNING YOSHLAR TA'LIMIDAGI AHAMIYATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

QURBONOVA SADOQAT ABDUJALILOVNA

Termez davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti

"Tarjimonlik nazariyasi" yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: ushbu maqola O'zbekiston hukumati tomonidan yoshlar orasida chet tillarini keng yoyilishiga qanchalik etibor berilayotganini o'rganadi. Yoshlarning ilmiy ishtirokini oshirish uchun yaratilgan shart sharoitlar, yoshlar uchun xorijiy ta'lim dasturlari va ularning ilmiy qarorlar qabul qilish jarayonlarida faol ishtirokini rag'batlantirish haqida yoziladi. Bundan tashqari xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan ehtiyojning ortishiga sabab bo'layotgan omillar roli borasida mulohaza yuritiladi va yoshlar bilan ishlashda yuzaga keladigan muammolar tahlil qilinadi.

Kalit So'zlar: O'zbekiston yoshlar siyosati, kompensatsiya, ilmiy ishtirok, xorijiy til filologiyasi.

Yoshlarning ilmiy rivojlanishi har bir demokratik jamiyatning ajralmas qismi hisoblanadi. Shu boisdan O'zbekiston Respublikasida ham yoshlar ta'limi uchun bir qator investitsiyalar ajratilmoqda. Ayniqsa, 30 yoshgacha bo'lgan yosh avlod o'rtasida chet tilini o'rganishga bo'lgan talabning ortib borishi hukumatimiz tomonidan alohida e'tirofga olinmoqda. Misol uchun, 2024-2026-yillarda oliy ta'lim tashkilotlarining xorijiy til filologiyasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha 3va4- kursda tahsil olayotgan hamda kamida C1 darajadagi sertifikatga ega talabalariga umumiy o'rta, o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida o'qituvchi sifatida mehnat faoliyatini amalga oshirishiga ruxsat etiladi. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, chet tili sertifikatidan daraja olayotgan yoshlarning 91,3%ini xususiy o'quv markazlarda



tahsil olayotganlar tashkil etar ekan. 2024-yil 1- oktabrdagi hukumat qaroriga ko'ra, olis va chekka hududlarda faoliyat ko'rsatuvchi eng yuqori ko'rsatgichga ega 100ta xususiy o'quv markazining ta'lim jarayonida foydalanadigan bino va inshootlar uchun ijara to'lovi xarajatlarining bir qismi kompensatsiya qilinadi. O'zbekiston prezidentining 134- sonli farmoniga ko'ra chet tili o'qituvchilariga milliy yoki xalqaro sertifikatlarga ega bo'lganda oylik maoshiga qo'shimcha ustama to'lash belgilangan.

Yoshlarning ilmiy faolligi jamiyatda katta o'zgarishlarga olib keladi. Ular nafaqat ta'limiy jarayonlarga ta'sir qiladi, balki ijtimoiy va iqtisodiy hayotga ham yangi g'oyalar kiritadilar. Yoshlar ayniqsa zamonaviy texnologiyalarni yaxshi biladigan va global fikrga ega bo'lgan avloddir. Shu tariqa chet tilini o'rganish jarayonida internet vositalaridan foydalanib uyushtirilsa, mamlakatimizning jahon hamjamiyatida tutgan o'rniga ham sezilarli darajada ta'sir qiladi. Yani davlatimizni dunyo miqyosidagi eng kuchli davlatlar safiga ko'tarishga alohida hissa qo'shgan bo'ladi. Bu borada yurtboshimiz tomonidan PQ- 239 son 27.06.2024- yilgi sanasida " Yoshlarni xorijiy tillarga o'qitish tizimi samaradorligini oshirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi" qarori qabul qilindi. Tilning xilma-xilligi va boyligi, me'yorlarga qat'iy rioya qilishga asoslangan holda, til orqali dunyoqarashni yetkazish imkoniyatlarini kengaytiradi. Har qanday tilning faoliyati inson nutqining savodxonligini belgilovchi til me'yori tushunchasiga asoslanadi. Me'yor adabiy tilning xususiyati hisoblanadi, ya'ni muloqotning namunaviy vositasi sifatida ishlatiladi. Ushbu muloqot davomida yoshlarning talim olishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish va ularni qo'llab quvvatlashga qaratilgan bir qator muhim qarorlar qabul qilindi. Bu qarorlar yoshlarimizning kelajakka bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi va mamlakatimizning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.



XULOSA:

Xulosa oʻrnida aytish joizki, davlatimiz tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlarning barchasi yoshlarimizni dunyo miqyosida tanilishga va mamlakatimizni butunjahon rivojlangan davlatlar safiga koʻtarish uchun hissa qoʻshmoqda. Bu boradagi imkoniyatlardan foydalanish avvalo yosh- avlodning intellektual salohiyati va harakatiga bogʻliq

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Oʻzbekiston respublikasi " Oʻzbekistonda yoshlarga oid taʼlim dasturini 2026-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" <https://lex.uz>.
2. Gʻulom Mirzo. Yoshlar yangi Oʻzbekiston bunyodkori. Manbaa: Inson huquqlari boʻyicha Milliy Markaz rasmiy web sayti. <http://nhrc.uz>
3. Шадиева Д. К. Влияние явления концентрации информации в современных СМИ на изменение норм русского языка //Современный ученый. – 2021. – №. 5. – С. 252-257.
4. Шадиева Д. К. Экстраполяция и изучение тенденций на изменение норм русского языка //Современные проблемы филологии. – 2022. – С. 133-138.